

QORAQALPOQLAR HAYOTIDA TASAVVUF TA'LIMOTINI RIVOJLANTIRISHDA DINIY ULOMALARNING O'RNI

Atamuratova Mirjaxan Jumanazarovna

NukusDPI tayanch doktoranti

[E- mail:matamuratova0875@gmail.com](mailto:matamuratova0875@gmail.com)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqi ijtimoiy-manaviy hayotiga tasavvuf ta'limotining tarqalishi va rivojlanishida diniy ulomalar(eshon)ning xizmatlari falsafiy tahlil etilgan. Eshonlar aholiga kuchli ta'sir o'tkazgan va katta imtiyozlarga ega bo'lgan, ular islom dinining asosiy targ'ibotchilari bo'lgan. Chunki, islom dinining qoraqalpolarga tarqalishi ko'pincha so'fiy ruhoniylari orqali amalga oshirilgan. Maqolada Qoraqalpoqlar hayotida tasavvuf ta'limotini rivojlantirishda diniy ulomalar Imam eshon, Qoraqum eshonlarning katta xizmatlari bor ekanligi kursatib utilgan.

Kalit so'zlar: Islom dini, tasavvuf ta'limoti, so'fiylar, eshon, oxun,pir, murid. qoraqalpoqlar, Imam eshon, Qoraqum eshon.

РОЛЬ РЕЛИГОВЕДОВ В РАЗВИТИИ СУФИЗМА В ЖИЗНИ КАРАКАЛПАКОВ.

Аннотация: В данной статье философски анализируются заслуги религиоведов (ишанов) в распространении и развитии суфизма в общественно-духовной жизни каракалпакского народа. Ишаны имели сильное влияние на население и обладали большими привилегиями, они были главными распространителями ислама. Потому что распространение ислама среди каракалпаков часто осуществлялось через суфийских ишанов. В статье показано, что большие заслуги в развитии суфизма в жизни каракалпаков имеют религиоведы Имам ишан и Каракум ишан.

Ключевые слова: ислам, суфизм, суфии, ишан, ахун, пир, murid. каракалпаки, Имам эшон, Каракум эшон.

THE ROLE OF RELIGIOUS SCHOLARS IN THE DEVELOPMENT OF SUFISM IN THE LIFE OF KARAKALPAKS.

Annotation: This article philosophically analyzes the merits of religious scholars (ishans) in the spread and development of Sufism in the social and spiritual life of the Karakalpak people. Ishans had a strong influence on the population and had great privileges, they were the main distributors of Islam. Because the spread of Islam among the Karakalpaks was often carried out through Sufi ishans. The article shows that religious scholars Imam Ishan and Karakum Ishan have great merit in the development of Sufism in the life of the Karakalpaks.

Keywords: *Islam, Sufism, Sufi, Eshan, Akhun, Pir, Murid. Karakalpaki, Imam Ishan, Karakum ishan.*

Kirish

Mustaqillik tufayli jamiyatda din, ma'naviy hayot tarixini yoritishga yangicha munosabat vujudga keldi, jumladan tasavvuf ta'limotini o'rganish uchun qulay sharoyitlar yaratildi. Tasavvufni har tamonlama o'rganish o'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy- ma'naviy taraqqiyotini to'liqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Moverannahrda islom dinining tarqalishi VII asr oxiri-VIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Arablarning bosib olishi tugagannan keyin xalqimiz tarixida yangi bosqich islom madaniyati davri boshlandi. Qariyb bir yarim ming yil davomida islom dini musulmonlarning turmush tarzini belgilap berdi, ijtimoiy munosabatlarning barcha qatlamlariga singib ketdi va jamiyat ma'naviy taraqqiyotining ichki o'zagi bo'lib xizmat qildi. Markaziy Osiyo mintaqasida so'fiylik islom dinini yoyishning eng keng tarqalgan shakliga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Tasavvuf ta'limotining Qoraqalpog'iston xududida tarqalishi, diniy ulomalar tarixi kam o'rganilgan mavzu hisoblanadi. Tarixchi olimlar P.Ivanov, S.Kamalov, G.Xojaniyozov, M.Tlewmmuratov, O.Yusupov, J.Xakimniyazov, M. Karlibayev va boshqalar Qoraqalpoq xalqining qadimgi, o'rta asr va yangi davrdagi tarixi, muqaddas qadamjolar haqida, ijtimoiy-siyosiy, va ma'naviy turmushi haqida ma'lumotlar bergan. XVIII-XX asrlarda qoraqalpoqlarning ijtimoiy va madaniy hayotidagi islom dinining o'rni haqidagi ilmiy tadqiqotlar olim M.Karlibayev tomonidan olib borilgan. Uning "Medrese v Karakalpaki" nomli asarida Qoraqalpog'istondagi madrasalar haqida ilmiy tadqiqotlar olib brogan. A.Idrisovning "Qoraqum eshonlar tarixi" kitobida Qoraqum eshon masjid madrasasi, eshon-ulomalar haqida ma'lumotlar berilgan. Ammo, qoraqalpoqlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotiga tasavvuf ta'limotining kirib

kelishi, riojlanishi, ta'siri falsaviy chuqur o'rganilmagan, bu holat shu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada mantiqiylik, tarixiylik, tizimlilik, qiyosiylik, o'zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Qoraqalpoqlar o'zlarini islom olamining bir qismi dep tan oldilar, ular kundalik hayotida amal qiladigan barcha diniy marosimlar, qoidalar bilan tanish edilar. XVIII-asrda qoraqalpoqlarning diniy-ijtimoiy hayotida so'fiylik oqimi vakillari eshonlarning ta'siri sezilarli bo'lgan.

Eshon etimologiyasi to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Eshon-O'rta Osiyoda hurmatli va e'zozlangan ulamolar-so'fiy birodarliklarining yetakchilari va ularning avlodlariga berilgan unvon yoki taxallus [1.164]. Eshon (fors. *ayshān* [ishān], ishan. — ishan) olmoshidan kelib chiqqan bo'lib, "ular" ma'nosini anglatadi, bu uchinchi shaxsga, ko'plikka murojaat qilish uchun ishlatiladi. Oddiy odamlar "ular" degan ma'noni anglatuvchi "ishan" olmoshini eshonga hurmat sifatida ishlatishgan. Eshonni o'z ismlari bilan chaqirish hurmatsizlik deb hisoblangan.

Bundan tashqari, O'rta Osiyoda eshonlarni Muhammad payg'ambardan kelib chiqqan urug' vakillari deb ham atashadi. Akademik V. A. Gordlevskiy "eshon" atamasi haqida shunday yozadi: "Yangi e'tiqodni (islomni) qabul qilgan, lekin mag'lubiyatga uchragan xudolar ustidan hokimiyatni saqlab qolgan kishi musulmonlarning quyi tabaqalari orasida hurmat-ehtiromga sazovor bo'ldi. Muridlarning so'zlarini takrorlash... xalq shayx-eshon nomi o'rniga, ya'ni "ular", forsha olmoshdan... foydalangan, O'rta Osiyo turklari (o'zbeklar, qozoqlar va boshqalar) va tatarlar orasida eski shaman o'rnini egallagan "eshon" so'zi shunday yaratilgan". Shuningdek, u «eshon» atamasini ilk bor Bahouddin Naqshband izdoshlari ishlatganligini ta'kidlaydi [2.157]. Bundan ko'rinib turibdiki, eshon atamasi O'rta Osiyoda mo'g'ullargacha bo'lgan davrdan beri ma'lum bo'lgan bo'lsa-da, XV-XVI asrlarda mahalliy aholi orasida keng tarqalgan.

Eshonlar haqida V.V.Bartold o'z tadqiqotlarida, "ular tasavvufning rahbarlari edilar, Turkistonda bu nom "Shayx, pir, ustoz" ma'nosida ishlatilgan. Ular tariqatning ma'naviy rahnamolari, muridlarning ustozlari, yo'l boshchilari hisoblangan. Mashhur Xoja Ahror o'z tarjimai holida doimo "eshon" deb atalgan. [3. 675].

Shunday qilib, dastlab «eshon deb O'rta Osiyodagi so'fiylar jamaosining irsiy yoki asl boshlig'iga qarata ishlatilgan. Eshon shogirdlari muridlar deb ataladi va diniy faoliyatini boshlash uchun ruxsotnama olguncha eshonning xizmatida bo'ladi. Mashhur eshonlarning muridiga aylanishi sharaflil sanalgan. Xalq ularni Xudo bilan inson o'rtasidagi bog'lovchi avliyo deb hisoblagan. Eshonlardan muridlar aholiga bola tug'lsa, sunnat qilinsa, nikoh uchun, savdo-sotiq rivoji uchun duo olib bergan. Ba'zilar ot va qo'ylarni hadya qilashgan. Ular buni o'zlarining yaxshiliklari uchun mukofat deb bilgan [4.31]. Bu xalqning eshonlarga bo'lgan hurmati ifodasidir. Eshonlar xalq orasida diniy ta'limot berish bilan cheklanib qolmay, ko'plab ijtimoiy vaziyatlarga aralashishlari ijtimoiy muhitga ta'sirini kuchaytirdi. Bu holat tasavvuf vakillari - eshonlarning nufuzining ortishiga olib keldi.

XVIII-asrda qoraqalpoqlarning diniy-ijtimoiy hayotida so'fiylik vakillari eshonlar muhim o'rin tutgan. Sababi, shu davrda qoraqalpoqlar orasida Xiva va Buxorodagi madrasalarni bitirgan diniy ulamolar(eshon)ning obro'si baland edi. Tarixchi S.Kamalov eshonlar instituti qoraqalpoqlar Xiva xonligi tomonidan bosib olingandan keyin keng tarqala boshlaganligini aytadi [5.148].

XIX asrda Qoraqalpog'iston sharoitida ular aholiga kuchli ta'sir o'tkazgan va ulkan imtiyozlarga ega bo'lgan, eshonlar islom dinining asosiy targ'ibotchilari bo'lgan. Chunki, islom dinining qoraqalpolarga tarqalishi ko'pincha so'fiy ruhoniylari orqali amalga oshirilgan. Eshonlar orasida yirik yer egalari ham bo'lgan. Qoraqalpoq diniy ulomalari eshonlar bilan bir qatorda o'zlarini Muhammad payg'ambarning avlodlari deb hisoblagan xo'ja, shayx va oxunlar ham katta imtiyozlarga ega bo'lgan. Oxunlar Xiva yoki Buxorodagi madrasani bitirgan savodli kishilar bo'lib, ular diniy ta'lim berish bilan shug'illangan.

Qoraqalpoq diniy ulamolarining barchasi Naqshbandiya tariqatida bo'lgan. XVIII-XIX asrlarda Jantemir eshon, Imom eshon, Qaraqum eshon, Aimuhammad eshon, Abdisattor eshon boshqa ulamolarni misol qilib keltirish mumkin. Buxaro, Xiva, Eron, Yaqin Sharq madrasalarida o'qib, chuqur bilim olib kelgan qoraqalpoq ulamolari musulmon ilmiga asoslangan o'zlarining maktablarini, madrasalarini qurdi. Qoraqalpog'istondagi ikkita madrasa XX-asr boshlariga qadar adabiyotlarda ko'p tilga olingan. Bular Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi Tosh madrasa va Bo'zatov tumani hududidagi Qaraqum eshon madrasasi [6.30].

Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi qoraqalpoqlar orasida 114 eshon yashaganligi manbalarda qayd yetilgan[7.54]. Bu ma'lumot XIX asrda qoraqalpoqlar orasida sofiylik talimotining rivojlanganidan darak beradi.

O'zbeksdan Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlarining bir necha yil davomida Janubiy Orolboyi tarixi va madaniyati bo'yicha Sharq tilidagi qolyozmalarni o'rganish borasida Qoraqalpog'istondagi tasavvuf tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lgan qolyozmani topdi. Bu "Nisbatnama"iy xojagon-naqdshbandiya" deb atalib, Xojagon-Naqdshbandiya tasavvuf vakillarining zanjirlik kashtasi bo'lgan. Qolyozmada tasavvuf ta'limotining Naqshbandiya vakillarining eshon otlari yoritilgan va XVIII-XIX asrlarda Xorazm va Qoraqalpog'iston hududiga tasavvuf ta'limoti tarqalishida xizmat ko'rsatgan vakillari haqida ma'lumotlar berilgan [8.57].

"Nisbatnama"da yozilishisha XIX asr-XX asr boshlarida qoraqalpoqlarda asosan ikkita yo'nalish bo'yicha tasavvuf tarixati tarqalgan, birinchisi, Imom eshon o'g'li Otog'ulla eshon, ikkinchisi Qaraqum eshonlari yo'li bo'lgan.

Shayx Imamaddin Muhammed (Imom eshon) Qayipnazar o'g'li (1753-1831) Jan'adaryo atroflarida tug'ilgan. U o'z davrining etuk ulomasi, Naqshbandiya tarixatining eng mashhur vakillaridan biri. U Buxarada xaliyfa Niyazquli qo'l ostida ta'lim olgan. Sha'riyat va tasavvuf ilimlarin o'rganib kelgach qoraqalpoq xalqiga diniy bilim bergan va shu o'lkada masjid va madrasalar qurgan. Imom eshonnan so'ng qoraqalpoqlarda ulamo eshonlarning soni ko'paydi. Ular

Qutlug'xoja eshon, Bahowaddin eshon, Atag'ulla eshon, Suyin eshon, Abidrasul eshon, Ibadullo eshon, Abdusator eshon, Abdirasul oxun, Baymuhammad eshon va boshqalar. Ular boshlang'ich ta'limni Imam eshonnan olib, so'ng Xiva, Buxaro va boshqa shaharlarda o'qib, taniqli ulomolarga aylandi.

XIX-asrdagi tasavvufning yana bir yirik namoyandasi Qutlug'xoja eshon (Qoraqum eshon) edi. Qoraqum eshon naqdbshandiya tarixatining vakili hisoblanib, u Markaziy Osiyodagi mashxur Abdulxaliq Gijduaniy, Bahowaddin Naqdashbandiy, Xoja Axror Valiy kabi buyuk tasavvuf vakillarining davomshilaridan bo'ldi.

Qutlug'xoja eshon Buxara va Xiva madrasalarni tugatgandan so'ng XIX asr o'rtalarida Urganchdagi No'g'ay shayxdan "irshad xat", ya'ni tasavvuf ta'limotini o'rgatishga ruxsat olib, dastlab Qo'ng'iro't atrofida, keyinchalik daryoning o'ng tarafidagi biylarning so'rovi bo'yicha hozirda joylashgan o'rniga kelib masjid-madrasa va xonaqahlar qurib, aholining savodxonligi, madaniy hayot darajasini oshirishga hissa qo'shdi. Tasavvuf tariqatini o'rganib so'fiylik yo'lini tutishni xohlovchilarga tasavvuf ta'limotini o'rgatgan. Xiva xonlari arxivining 52-sonli daftarida qoramol egalari ro'yxatida 20 dan ortiq eshonning ismlari topilgan. Ular orasida Imom eshon va uning o'g'li Atag'ullo eshon, Latif eshon, Jontemir eshon va boshqalar bor [9.34].

XIX asr oqiri XX asrning boshlarida qoraqalpoqlarning ijtimoiy-madaniy hayotida Qoraqum eshon masjid-madrasasi katta rol o'ynadi. Qoraqum eshon masjid madrasasiga asos solgan XIX asrda yashab o'tgan qoraqalpoq xalqining farzandi, Buxoroda ta'lim olib, keyin Xorazmda Muhammed Shariyf eshon al-Xorazmiy, al-Bulg'ariydan tasavvuf ta'limini olgan sufi, shayx, hazrati Qutlug'xoja eshon Aziyzberdi shayx o'g'li hisoblanadi.

XIX-XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning diniy, ta'lim va tasavvuf markazi Qoraqum masjid-madrasasi bo'ldi. Bu erga nafaqat Qoraqalpoq xalqining farzandlari, balki qozoq, o'zbek, turkman millatining vakillari ham kelib ta'lim olgan va so'fiylik ta'limotini o'rgangan.

Bu kompleksda 302 xona xalqqa xizmat ko'rsatgan. Shulardan talabalar ta'lim olishi uchun 3 madrasa, ibodat qilish uchun masjid, so'fiylar o'rnini bolgan xonaqoh, kutubxona va xojalik xonalaridan iborat bolgan [10.18]. O'z vaqtida Qoraqum eshon masjid madrasasida boy kutubxona bo'lgan. Bu yerdan oxun, ulamolar, savodli ziyolilar etishib chiqqan. Qoraqalpoq adabiyotining klassik shoirlari Kunxoja Ibrohim o'g'li va Berdaq Qarg'aboy o'g'li shu madrasada tahsil olishgan. Berdaq Qarg'aboy o'g'li "Mening hayotim" qo'shig'ida:

"Nolish etib bir Ollohga,
Madrasa qidirib bormaga,
Ilmu fan hosil qilmaga,
Talabgor bo'lgan kunlarim" [11.48].

- deb Qoraqum eshon madrasasida tahsil olib, ilm o'rgangan kunlarini eslaydi. Qoraqum eshon masjid-madrasasi yosh avlodni o'qitib, savodli kelajak yoshlarning ko'payishiga xizmat qilgan. Bu ishlar islom dinining tasavvuf ta'limotiga aloqador olib borilgan.

Sovet hukumati davrida eshonlar ommaviy ta'qibga uchragan. Ular avvalgi obro'sini yo'qotgannan keyin 1927-jili Xorazm, Turkmaniston va Qozoqstan davlatlariga mashhur bo'lgan Qoraqum eshon madrasasi ham yopiladi. Unda talabalarga ilim o'rgatgan imom-eshonlar shu davirning farmoni bilan qatog'anga uchiraydi. O'sha paytlarda Qozoqdaryoda suv ko'tarilib, eski Qorauzakni suv olishi oqibatida madrasaning inshootlari qulab, kutubxona suv ostida qolib ketgan. Aslida kutubxonaning nobut bolishi undan ham oldinroq boshlangan, bu sovet hukumatining islom dini bilan masjid-madrasalarga qarshi yurgizilgan repressiyalarga bog'liq boldi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, XVIII-XIX asrlarda qoraqalpoqlar orasida etuk diniy ulomolar etishib chiqib ular o'z bilimlarini Xiyva va Buxoro madrasalarda oshirib kelip, tasavvuf talimotini qoraqalpoq xalqiga tarqalishida katta hissa qoshdi.

Abduxalq Gijdivoniy Bahauddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy kabi Sharqning buyuk tasavvuf vakillarining davomchilari qoraqalpolarga naqshbandiya talimotin tarqatgan diniy ulomolarning xalqimiz manaviy hayotida katta orni bor. Ular xalqqa diniy bilim bergan, xalqimizning manaviy barqarorligin taminlagan hurmatga loyiq insonlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Ислам. Энциклопедический словарь. Том I. – М.: 2006. –164 с.
2. Гордлевский В. А. Бахауддин Накшбанд Бухарский (К вопросу о наслоениях в исламе) Избран. соч., Т.3. – М.: 1934. –157 с.
3. Бартольд В.В. Сочинения. Работы по истории ислама и Арабского халифата. Том VI. “Наука”, – М.: 1966. – 675 с.
4. Гейер И.И. Туркестан. – Т.: 1909. –31 с.
5. Камалов С.К. Каракалпакии в XVIII-XIX веках. “Фан”, – Т.: 1968. – 148 с.
6. Карлыбаев М. Медресе в Каракалпакии XIX - начало XX веков. – Н.: 2002. -30 с.
7. Идрисов А. Қарақум ийшан тарийхы. “Қарақалпақстан”, – Н.: 2023. – 54 б
8. Идрисов А. “Қорақалпоғистондаги сўфийлик тарихига оид икки манба ҳақида”. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотнамаси. – Н.: 2000. №5. –57 б
9. Брегель Ю.Э. Документы архива Хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. “Наука”, – М.: 1967. – 34 с.
10. Карлыбаев М. Медресе в Каракалпакии XIX- начало XX веков. – Н.: 2002. – 18 с.
11. Бердақ. Танланган асарлар. “Қарақалпақстан”, – Н.: 1997. – 48 б.